O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 3 - iyul 298-10-0-Q/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyatining shahar va tumanlarida elektron auksion savdolariga qo‘yiladigan yer maydonlarida ijara huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi 6243-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining ““Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiylashtirish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli hamda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagam yer maydonlarini xususiylashtirish va elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berish tartib-taomillari soddalashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiylashtirish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 71-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 30-noyabrdagi 685-sonli qarorlariga muvofiq, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirsh uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer maydonlarini “Elektron onlayn-auksion” orqali ijaraga berishning minimal qiymatini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.Payziyev) 2023-yil uchun tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagam bo‘sh turgan yer maydonlarini “Elektron onlayn-auksion” orqali ijara huquqi (1 kvadrat metr uchun) yuzasidan ishlab chiqilgan minimal qiymati bo‘yicha tavsiyalari maqullansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-noyabrdagi 685-sonli qaroriga muvofiq bir kvadrat metr yer maydoni ijaraga berishning minimal qiymati har bir tuman (shahar) uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlari qarorlari bilan tasdiqlanishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda:

yer maydonining maydoni (kv.m);

bir kvadrat metr yer maydoni uchun ijaraga berishning minimal qiymati, so‘m/kv.m;

yer maydonini ijaraga berish muddati, yil;

yer maydonini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati, yer maydoniga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga oid xarajatlar (so‘m) kabi mezonlar inobatga olinsin.

3. Davlat kadastrlar palatasining viloyat boshqarmasi (J.Axrorov) yer maydoniga bo‘lgan ijara huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha xarajatlari Vazirlar Mahkamasining “Davlat kadastri sohasida davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 10-iyuldagi 186-sonli qarori talablariga muvofiq belgilanishini nazarda tutsin.

4. Shahar va tumanlarda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan bir kvadrat metr yer maydonini “Elektron onlayn-auksion” orqali ijaraga berishning minimal qiymati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov) har bir tuman (shahar) uchun yer maydonidan ijara huquqining minimal qiymati tasdiqlangan sanadan e’tiboran 1 (bir) ish kuni mobaynida soliq xizmatlari organlari tomonidan “YERELEKTRON” AATga kiritilishini ta’minlasin.

6. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi (E.Po‘latov), shahar va tuman hokimliklari belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer maydonlarini ijaraga berish maqsadida auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.

7. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.Payziyev), viloyat qurilish va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi (E.Po`latov) tasarruf etilgan yer maydonlaridan maqsadli va samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoring olib borish vazifalari

yuklansin.

8. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (R.Raimov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.Payziyev) va viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Nizamiddinov) bo‘sh yer maydoni minimal qiymat bahosiga qat’iy rioya qilinishi hamda mahalliy byudjetga pul tushumlarini o‘z vaqtida to‘liq tushurilishini ta’minlasin.

9. Viloyat hokiminig matbuot kotibi-ahborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (B.Kabulov) mazkur qarorni “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalarida va hokimlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishini nazoratga olsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev va viloyat hokimi o‘rinbosarlari Sh.Mahmudov hamda N.Sharipovlar zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**

Toshkent viloyat hokimining
2023-yil 3-iyuldagi
298-10-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyatining har bir tuman (shahar) uchun yer maydonini “Elektron onlayn-auksion” orqali ijaraga berishning

MINIMAL QIYMATI

№	Shahar, tuman nomi	100-1000 *(kv.m)* *(so‘mda)*	1000-10 000 *(kv.m)* *(so‘mda)*	10 000-50 000 *(kv.m)* *(so‘mda)*	50 000 va undan yuqori *(kv.m)* *(so‘mda)*
1	Angren shahar	4 620	2 310	1 155	577,5
2	Bekobod shahar	3 960	1 980	990	495
3	Olmaliq shahar	4 620	2 310	1 155	577,5
4	Ohangaron shahar	3 960	1 980	990	495
5	Yangiyo‘l shahar	3 960	1 980	990	495
6	Chirchiq shahar	4 620	2 310	1 155	577,5
7	Nurafshon shahar	3 630	1 815	907,5	453,75
8	Bekobod tumani	2970	1 485	742,5	371,25
9	Bo‘ka tumani	2970	1 485	742,5	371,25
10	Bo‘stonliq tumani	3 960	1 980	990	495
11	Zangiota tumani	3 960	1 980	990	495
12	Yuqorichirchiq tumani	3 960	1 980	990	495
13	Oqqorg‘on tumani	2970	1 485	742,5	371,25
14	Ohangaron tumani	2970	1 485	742,5	371,25
15	Parkent tumani	2970	1 485	742,5	371,25
16	Piskent tumani	2970	1 485	742,5	371,25
17	Toshkent tumani	3 960	1 980	990	495
18	O‘rtachirchiq tumani	3 960	1 980	990	495
19	Chinoz tumani	2970	1 485	742,5	371,25
20	Quyichirchiq tumani	2970	1 485	742,5	371,25
21	Qibray tumani	3 960	1 980	990	495
22	Yangiyo‘l tumani	3 630	1 815	907,5	453,75